

YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASINING USTUVOR YO'NALISHLARI VA ULARNING JAMIYAT RIVOJIDAGI AHAMIYATI

Nazarova Dilnoza Eraliyevna

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti Tarix kafedrasida dotsenti, tarix fanlari falsafa doktori (PhD)

Zoirova Gavxar Xusanboyevna

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti Maxsus pedagogika (Logopediya) 1-kurs magistri

Annotatsiya: Mazkur maqolada 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining mazmun-mohiyati, asosiy maqsad va vazifalari hamda davlat va jamiyat rivojidagi ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida strategiyaning ustuvor yo'nalishlari, jumladan, inson qadrini yuksaltirish, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, qonun ustuvorligini ta'minlash, sud-huquq tizimini isloh qilish, milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, ijtimoiy sohani takomillashtirish, ma'naviy-ma'rifiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlash, ekologik barqarorlikni ta'minlash hamda tashqi siyosat va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish masalalari ilmiy jihatdan ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: Yangi O'zbekiston, taraqqiyot strategiyasi, davlat boshqaruvi, fuqarolik jamiyati, inson qadrini yuksaltirish, qonun ustuvorligi, sud-huquq tizimi islohoti, iqtisodiy modernizatsiya, raqamli iqtisodiyot, ijtimoiy rivojlanish, ta'lim tizimi, ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyot, ekologik barqarorlik, yashil iqtisodiyot, xalqaro hamkorlik.

Аннотация: В данной статье анализируются сущность и содержание Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы, ее основные цели и задачи, а также значение для развития государства и общества. В процессе исследования с научной точки зрения рассмотрены приоритетные направления стратегии, в частности повышение ценности человеческого достоинства, развитие гражданского общества, обеспечение верховенства закона, реформирование судебно-правовой системы, модернизация национальной экономики, совершенствование социальной сферы, поддержка духовно-просветительского развития, обеспечение экологической устойчивости, а также развитие внешней политики и международного сотрудничества.

Ключевые слова: Новый Узбекистан, стратегия развития, государственное управление, гражданское общество, повышение ценности человеческого достоинства, верховенство закона, реформирование судебно-правовой системы, экономическая модернизация, цифровая экономика, социальное развитие, система образования, духовно-просветительское развитие, экологическая устойчивость, зеленая экономика, международное сотрудничество.

Abstract: This article analyzes the essence and content of the Development Strategy of New Uzbekistan for 2022–2026, its main goals and objectives, as well as its significance for the development of the state and society. In the course of the research, the priority directions of the strategy are scientifically

examined, including enhancing human dignity, developing civil society, ensuring the rule of law, reforming the judicial and legal system, modernizing the national economy, improving the social sphere, supporting spiritual and educational development, ensuring ecological sustainability, and strengthening foreign policy and international cooperation.

Keywords: *New Uzbekistan, development strategy, public administration, civil society, enhancement of human dignity, rule of law, judicial and legal reform, economic modernization, digital economy, social development, education system, spiritual and educational development, ecological sustainability, green economy, international cooperation.*

Bugungi kunda O'zbekistonda davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish, milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, ijtimoiy sohani rivojlantirish hamda jamiyatning ma'naviy hayotini yuksaltirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar izchil amalga oshirilmoqda. Mazkur islohotlar mamlakatni har tomonlama rivojlantirish, zamonaviy demokratik davlat va kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etish, shuningdek, aholining turmush darajasini oshirishga xizmat qilmoqda. Global taraqqiyot jarayonlari, iqtisodiy raqobatning kuchayishi hamda zamonaviy boshqaruv tamoyillarining shakllanishi sharoitida davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini kompleks ravishda modernizatsiya qilish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, mamlakatda olib borilayotgan keng qamrovli islohotlarning mantiqiy davomi sifatida 2022-yil 28-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmon qabul qilindi [1]. Mazkur strategiya mamlakat taraqqiyotining yangi bosqichini belgilab beruvchi muhim konseptual va strategik hujjat hisoblanadi. Unda davlat va jamiyat rivojining ustuvor yo'nalishlari, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning asosiy vazifalari hamda ularni amalga oshirish mexanizmlari tizimli ravishda belgilab berilgan

Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi mamlakatda demokratik islohotlarni chuqurlashtirish, qonun ustuvorligini ta'minlash, inson huquq va erkinliklarini himoya qilish hamda fuqarolarning davlat boshqaruvidagi ishtirokini kengaytirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi. Strategiya, avvalo, inson qadrini ulug'lash tamoyiliga asoslanib, davlat siyosatining markaziga inson manfaatlarini qo'yish g'oyasini ilgari suradi. Shu bilan birga, strategiyada iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, investitsion muhitni yaxshilash, tadbirkorlikni rivojlantirish, ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish, ta'lim va sog'liqni saqlash sohalarini rivojlantirish kabi muhim vazifalar ham alohida o'rin egallaydi.[2]

Mazkur strategiyaning asosiy maqsadi - inson qadrini ulug'lash, erkin va faol fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, iqtisodiy o'sishni ta'minlash, ijtimoiy adolat tamoyillarini qaror toptirish hamda davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirishdan iboratdir. Shu bilan birga, strategiya mamlakatning uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladigan kompleks dastur sifatida namoyon bo'ladi. Unda davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini qamrab olgan ustuvor vazifalar, jumladan iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, sud-huquq tizimini isloh qilish, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish,

ma'naviy-ma'rifiy muhitni mustahkamlash hamda ekologik barqarorlikni ta'minlash kabi muhim yo'nalishlar belgilangan.

Hozirgi kunda strategiya doirasida amalga oshirilayotgan islohotlar mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy rivojiga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Davlat boshqaruvi tizimining takomillashuvi, iqtisodiy faoliyat uchun yaratilayotgan qulay sharoitlar hamda fuqarolar farovonligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu sababli Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining mazmun-mohiyati, ustuvor yo'nalishlari hamda uning jamiyat rivojidadagi o'rnini ilmiy jihatdan tahlil qilish zamonaviy ilmiy tadqiqotlarning dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.[3]

Taraqqiyot strategiyasining birinchi ustuvor yo'nalishi inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga qaratilgan. Mazkur yo'nalishda fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlash, davlat organlari faoliyatining ochiqligi va shaffofligini oshirish, shuningdek, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish muhim vazifa sifatida belgilangan. Davlat boshqaruvi tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida fuqarolar va davlat o'rtasidagi muloqot yanada samarali yo'lga qo'yilmoqda. Xususan, davlat xizmatlarini raqamlashtirish hamda aholiga qulay xizmat ko'rsatish tizimini rivojlantirish orqali davlat boshqaruvi samaradorligi oshirilmoqda.

Strategiyaning muhim yo'nalishlaridan biri- sud-huquq tizimini takomillashtirish va qonun ustuvorligini ta'minlashdir. Bu borada sudlarning mustaqilligini mustahkamlash, fuqarolar va tadbirkorlarning huquqiy himoyasini kuchaytirish, korrupsiyaga qarshi kurashish mexanizmlarini takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Shuningdek, huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini modernizatsiya qilish hamda fuqarolarning huquqiy madaniyatini oshirish strategiyaning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu esa, jamiyatda adolat tamoyillarining mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Strategiyaning uchinchi yo'nalishi iqtisodiyotni modernizatsiya qilish hamda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashga qaratilgan. Bu borada sanoatni rivojlantirish, qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish, investitsiyalarni jalb qilish hamda eksport salohiyatini oshirish muhim vazifalar sifatida belgilangan. Shuningdek, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish hamda tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash orqali mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish ko'zda tutilgan.

Taraqqiyot strategiyasining muhim yo'nalishlaridan yana biri aholining turmush darajasini oshirish hamda ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirishdan iborat. Bu borada ta'lim, sog'liqni saqlash, bandlik va ijtimoiy yordam tizimini rivojlantirishga qaratilgan keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, yoshlarning sifatli ta'lim olishi uchun sharoitlar yaratish, shuningdek, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo'llab-quvvatlash muhim vazifalar sifatida belgilangan.

Strategiyada ma'naviy-ma'rifiy sohani rivojlantirish ham alohida ahamiyat kasb etadi. Bu yo'nalishda milliy qadriyatlarni asrab-avaylash, yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda madaniyat va san'at sohasini qo'llab-quvvatlash muhim vazifa sifatida

ko'rsatilgan. Shuningdek, ilm-fan va innovatsiyalarni rivojlantirish orqali yoshlarning intellektual salohiyatini oshirish strategiyaning muhim maqsadlaridan biri hisoblanadi.[4]

Taraqqiyot strategiyasida ekologik muammolarni hal etish ham muhim yo'nalish sifatida belgilangan. Ayniqsa, Orolbo'yi hududidagi ekologik muammolarni bartaraf etish, suv resurslaridan oqilona foydalanish hamda "yashil iqtisodiyot" tamoyillarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Ekologik barqarorlikni ta'minlash kelajak avlodlar uchun sog'lom yashash muhitini yaratishga xizmat qiladi.[5]

Strategiyaning yana bir muhim yo'nalishi - mamlakat xavfsizligini ta'minlash hamda xalqaro hamkorlikni rivojlantirishdir. O'zbekiston tashqi siyosatida tinchliksevarlik, o'zaro manfaatli hamkorlik va mintaqaviy barqarorlikni ta'minlash ustuvor vazifa hisoblanadi. Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan do'stona munosabatlarni mustahkamlash hamda xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni rivojlantirish strategiyaning muhim vazifalaridan biridir [6].

Xulosa qilib aytganda, 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi mamlakat rivojining ustuvor yo'nalishlarini belgilab beruvchi muhim strategik hujjat hisoblanadi. Mazkur strategiya davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish, iqtisodiy o'sishni ta'minlash, ijtimoiy sohani rivojlantirish hamda fuqarolar farovonligini oshirishga qaratilgan.

Strategiyaning izchil amalga oshirilishi natijasida mamlakatda demokratik islohotlar yanada chuqurlashib, iqtisodiy barqarorlik mustahkamlanadi. Eng muhimi, inson qadrini ulug'lash tamoyili davlat siyosatining markaziy yo'nalishiga aylanadi. Shu sababli, Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi nafaqat hozirgi davr uchun, balki mamlakatning uzoq muddatli rivojlanish istiqbollari uchun ham muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida".

2.“Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”. – Toshkent: 2022.

3.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent, 2023.

4.O'zbekiston respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida. (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son).

5.www.lex.uz.

6.Islomov J., Mamatqulov A. “Milliy iqtisodiyotni diversifikatsiya va modernizatsiya qilish: nazariy va amaliy masalalar”. Iqtisodiyot va boshqaruv jurnali, 2022.